

STEREOMETRIYA KURSINI O'QITISHDA MICROSOFT POWER POINT DASTURIDAN FOYDALANILANISH


Raxmonov Ixtiyor Xusanovich

*JDPU, sirtqi bo'lim, tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim kafedrası
o'qituvchisi*

Sir emaski, geometriyani, xususan, stereometriyani o'rganish ko'plab o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirib, o'quv materialini o'zlashtirish yodlash orqali amalga oshiriladi. Geometriyani o'qitishda chizmalarsiz, yasashlarsiz uni o'quvchilarga tushuntirishni tasavvur qilish qiyin. Biror figurani o'quvchilar tasavvurida hosil qilishda, uning xususiyatini tushuntirishda, o'quvchilarni masala yechishga yo'naltirishda, albatta, chizmalardan foydalanamiz. An'anaviy metodda planametrik chizmalarni tushuntirib berishda faqat qalam, qog'oz, chizg'ich va sirkuldan foydalanamiz, stereometriyada esa ulardan foydalanish orqali fazoviy figuralarni o'quvchilar tasavvurida hosil qilish biroz murakkabroq. Fazoda yasashlarni bajarish tekislikda yasashlarni bajarishga nisbatan ancha farq qiladi hamda qog'oz va qalamdan foydalanish orqali o'quvchilarga fazoviy figuralar haqida tushunchalar berish biroz noqulayliklar tug'diradi. Bunday noqulayliklarni yo'qotish uchun yasashlarda va geometrik figuralarni ko'rsatib berishda, ularni o'rgatishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yangi imkoniyatlar ochadi. Buning uchun ko'plab multimediali kompyuter dasturlar mavjuddir. Bunday dasturlardan biri Power Point dasturi bo'lib, u Microsoft office dasturlaridan hisoblanadi. Ushbudastur orqali har xil mavzularga oid juda ko'plab taqdimotlar


tayyorlash imkoni mavjud.

Microsoft Power Point dasturi ishga tushirilganda dasturning interfeysi va muloqat oynasi ochiladi. Word, Excel dasturlari interfeyslari kabi Power Point interfeysi ham sarlavhalar satri ,menyular satri,uskunalar satri va ishchi maydoniga ega.




Menyular satri *Slaydlarni ko'rsatish* (Pokaz slaydov) bo'limi bilan farqlanadi. Power Point dasturi interfeysning boshqa dasturlar interfeysidan yana bir farqi Power Point muloqat oynasining mavjudligidir.

Muloqat oynasi taqdimot ishlarida yordam beradigan maslahatlar berilgan. Power Point dasturi taqdimot tayyorlashning quyidagi yo'llaridan birini tavsiya etadi: *Avtomazmun ustasi* (master avtosoderjaniya) bo'limi, *Taqdimot ko'rinishi* (шаблон презентации) bo'limi va *Bo'sh taqdimot* (пустую презентацию) bo'limi. Bundan tashqari, mavjud *Taqdimotni ochish* (открыт презентацию) imkoniyati ham mavjud. Misol uchun tayyorlangan bitta taqdimotni quyidagi ko'rinish orqali ko'rishimiz mumkin.




Microsoft Power point dasturida animatsiyalar yaratish


Microsoft Power Point 2013 dasturida murakkab animatsion taqdimotlar yaratish uchun hosil bo'lgan dastur oynasida slaydlarga Дизайн menyusidan kerakli fonni tanlab olamiz: CTRL+M tugmachasi yordamida yangi slaydlar qo'shiladi.




Slaydlarga fon tanlashda hammasini bir xil yoki har bir slaydga alohida-alohida fon o`rnatish mumkin. Hamma slaydlarga bir xil fon berish uchun **Дизайн** menyusida kerakli fonni tanlab sichqonchani o`ng tugmachasini bosib, **Применить ко всем слайда** buyrug`i tanlanadi. Slaydlarga alohida-alohida fon berish uchun esa kerakli slaydni belgilab, **Дизайн** menyusida kerakli fonni tanlab sichqonchani o`ng tugmachasini bosib, **Применить к выделенным слайдам** buyrug`i tanlanadi.



Murakkab animatsion taqdimotlar yaratishda menyulardan quyidagicha amallar bajarish mumkin:




Файл menyusida yaratilgan taqdimotni saqlash, ochish, yopish, himoyalash, chop etish va ko`rsatkichlarni o`zgartirish mumkin




Главная menyusida bufer almashtirish, yangi slayd yaratish, shrift o`lchamlarini sozlash, abzas o`rnatish, matnni chegaralash, marker o`rnatish,


shakllar o`rnatish va chizmalarni tahrirlash, ma'lumotlarni izlab topish, ularni almashtirish hamda tahrirlash ishlari bajariladi.



Вставка menyusida jadvallar, rasmlar, shakl va diagrammalar, bog`lashlar, matn, simvollar, multimediyalar o`rnatish va tahrir qilish amallari bajariladi.



Переходы menyusida slaydlarni namoyishi, slaydlarni almashishi, slaydlar namoyish vaqti o`rnatiladi va sozlanadi.



Анимация menyusida slaydlarda joylashgan matnlar, rasmlar, jadvallar, diagramma va figuralarga animatsiyalar o`rnatiladi va sozlanadi.

Тақдимотлар Показ слайдов menyusidan namoyish qilinadi va sozlanadi, F5 tugmasi yordamida ham taqdimotlarni namoyish qilish mumkin.

Tayyor bo`lgan taqdimot biror nom va *.pptx kengaytmasi bilan saqlanadi.